

DURRONIYLAR DAVLATI VA BUXORO AMIRLIGI O'RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR XUSUSIDA

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, t.f.f.d., (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14968412>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg'onistondagi durroniylar davlati va Buxoro amirligidagi mang'itlar sulolasi o'rtasidagi diplomatik va savdo-sotiq aloqalari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Durroniylar, mang'itlar, Buxoro, Afg'oniston, diplomatiya, savdo-sotiq, amirlik, hokimiyat.

ON DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE DURRANIAN STATE AND THE BUKHARA EMIRATE

Abstract. This article provides a scientific analysis of the diplomatic and trade relations between the Durranian state in Afghanistan and the Mangid dynasty in the Bukhara Emirate.

Keywords: Durranians, Mangids, Bukhara, Afghanistan, diplomacy, trade, emirate, government.

О ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ ДУРРАНСКИМ ГОСУДАРСТВОМ И БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ

Аннотация. В статье дается научный анализ дипломатических и торговых отношений между государством Дуррани в Афганистане и династией Мангидов в Бухарском эмирате.

Ключевые слова: Дурраниды, Мангиды, Бухара, Афганистан, дипломатия, торговля, эмират, власть.

Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi o'zaro aloqalar XVIII asrga kelib ancha jonlandi. Chunki, bu davrda Afg'onistonda rasman yangi sulola durroniylar imperiyasiga 1747-yil asos solinganligi va Buxoro amirligida esa 1753-yilda mang'itlar sulolasining hukmronligining o'rnatilishi bilan o'zaro aloqalar jonlangan. Ushbu ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning bir ko'rinishi savdo-sotiq ko'rinishida bo'lib, bu jihat keyingi asrlarda yana ham kengayganligini ko'ramiz. Ikkinchi jihat esa siyosiy manfaatlar negizida bo'lib, bunda har ikki davlat amirlarning manfaatlari to'qnashganligini adabiyotlarda qayd etiladi.

Buxoro amirligi (1753-1920-yillar) ning mang'itlar sulolasi hukmronlik yillarida tashqi aloqalar va amirlik diplomatiyasi bilan bog'liq jihatlar hali to'liq o'rganilmay kelayotgan va tadqiqotchilar oldida turgan asosiy vazifalardandur. Lekin shunday bo'lsada Buxoro amirligining ayrim amirlari davrida bir qancha davlatlar xususan, Rossiya, Usmonli turklar imperiyasi, Eron,

Hindiston, Xitoy va Afg'oniston davlatlari bilan diplomatik, hamkorlik, savdo-sotiq, elchilik kabi olib borgan aloqalarini birmuncha yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarni tahlil etish orqali mang'it hukmdorlaridan amir Haydar, amir Nasrullo, amir Muzaffar va amir Abdulahadlar hamda qisman amir Said Olimxon davrida diplomatik aloqalar bir muncha faol kechganligi oydinlashadi.

Bunday xulosaga kelish uchun quyidagi jihatlar asos bo'lganligini qayd etish o'rinli deb hisoblaymiz:

Birinchidan, ushbu amirlar hukmronligi yillariga oid diplomatik yozishmalar, xatlar va hujjatlar ko'proq saqlangan;

Ikkinchidan, ushbu davrda Buxoro amirligi va boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga keng e'tibor berilgan;

Uchinchidan, olib borilgan tashqi siyosat o'z navbatida, amirlikda savdo-sotiqni rivojlantirishga, yangi ta'lim usullarini kirib kelishiga, sanoat, qurilish va ishlab chiqarish sohalarida muayyan darajada o'zgarishlarga olib kelgan;

To'rtinchidan, aynan ushbu davrga kelib davlat hokimiyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni huquqiy vositalar asosida hal qilishga e'tibor qaratilgan[1].

Amir Haydar hukmronligi davrida O'rta Osiyo davlatlari – Xiva va Qo'qon xonliklari, Rossiya, Eron, Afg'oniston, Xitoy hamda Usmoniylar davlati bilan xalqaro iqtisodiy, madaniy va siyosiy-huquqiy munosabatlarni shakllantirish maqsadida elchilik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qilingan. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa amirlardan farqli o'laroq, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan davlat boshlig'i sifatida ajralib turadi[1].

Amir Haydar davlatni boshqarishda asosan tashqi munosabatlarga e'tibor qaratadi, xususan, u afg'on hukmdori Ahmad Shoh Durraniyning o'g'li Sho'ja al-Mulkom bilan ikki mamlakat o'rtasida o'zaro do'stlik rishtalarini qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan[1].

Buxoro amiri Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligining tashqi siyosati asosan Afg'oniston va Eron mamlakatlari bilan bo'lib, unda doimiy harbiy to'qnashuvlar bo'lib turganligiga guvoh bo'lamiz. Tarixchi olim va shoir Mirzo Sodiq Jondoriy (to'liq nomi: Mirzo Muhammad Sodiq ibn Abduvali Munshiy Jondoriy; XVIII asr 50-yillari – 1819) ning fikriga qaraganda, Amir Shohmurod har yili qizilboshlar (Eron shialari) ga qarshi Xurosa harbiy yurishlar uyushtirib, Mashhad va Tehrongacha borgan. U 20 martadan ortiq harbiy yurishlar qilgan. Amir Shohmurod Xurosonning boshqa qismi – Balx viloyati uchun afg'onlarning Durraniylar davlati hukmdori Temirshoh ibn Ahmadshoh Durraniyga qarshi urush olib borgan. Balx viloyati hududi avval Buxoro xonligiga qaragan.

So'ngra bu hududlarni Eron shohi Nodirshoh Afshor (hukmronlik davri; 1736-1747) bosib olgan edi. Nodirshohning vafotidan so'ng 1852-yilda bu hudud durroniylar tomonidan bosib olingan. Tarixiy manbalarda Chahor viloyat – Chor viloyat nomi bilan mashhur bo'lgan Andxuy, Shibirg'on, Saripul, Aqcha (Oqcha) viloyatlari aholisi asosan o'zbeklar va qisman tojiklardan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham Balx va Aqcha aholisi afg'onlarga qarshi qo'zg'alon ko'tarib, 1788-yili Amir Shohmuroddan harbiy yordam so'rashgan. 1789-1792-yillarda o'zbek va afg'on qo'shinlari o'rtasida Kalif va Aqcha viloyatlarida bo'lgan janglarda Amir Shohmurod qo'shinlarig'olib chiqqan. Har ikki o'rtada sulh tuzilib, Balx, Maymana va Andxuy Buxoroga qaytarilgan, Badaxshon qisman afg'on davlati tasarrufida qolgan[4].

Shunday qilib, Shohmurod Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi oldingi Buxoro yerlarini qaytarib olish uchun Afg'on hokimi Temurshoh ibn Ahmadshoh Durroniya (1772–1792 y.y.) qarshi urushlar olib bordi. XVIII asrning boshlarida ushbu yerlar, ya'ni Balx, Maymana, Andxuy Afg'on davlati asoschisi Ahmad shoh Durroniya (1743–1773 y.y.) tomonidan bosib olingan edi. Qisqa muddatli janglardan so'ng (Oqchi degan mavzega yaqin joyda) Shohmurod bilan Temurshoh o'rtasida sulh tuzilib, ushbu sulhga muvofiq Amudaryo ikkala davlat, ya'ni Buxoro bilan Afg'oniston o'rtasida chegara deb belgilandi. Maymana va Andxo'y Buxoro tobeligiga va Balx bilan Badaxshon afg'onlar itoatiga kirdi.

Bundan tashqari XIX asr ikkinchi yarmiga qadar Buxoro va Afg'oniston o'rtasida bevosita savdo-sotiq aloqalari keng miqyosda olib borilgan. Buxoro-Kobul (Afg'oniston) savdo-sotiq munosabatlarida karvon savdosi muhim ahamiyat kasb etib, hindistonlik savdogar Mir Halimning yozishicha ikki mamlakat o'rtasidagi yillik savdo aylanmasi 10-15 ming tuya yukni tashkil etgan. Afg'oniston va Buxoroni tutashtiruvchi savdo-sotiq va karvon yo'llarida 200-300 tuyalik karvonlar qatnovi muntazam bo'lib turgan[5].

Markaziy Osiyo davlati bo'lmish Afg'oniston va Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo aloqalari ham muttasil davom etib turgan. Lekin bu savdo aloqalarining turli davrlarda turlicha bo'lganligini ko'rsak bu siyosiy munosabatlarda o'z aksini topgan. Ba'zi vaqtlarda ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning chigallashib ketganligini ko'rsak, ba'zi hollarda bu jihatlar do'stona tus olganligini ham ko'ramiz. Aslida bu jihatlar mamlakat teppasiga kelgan hukmdorlarning siyosati bilan ham bevosida bog'liq bo'lgan.

REFERENCES

1. Shodiev J.M Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi.- Toshkent., 2010-yil., 2010.- B.44-45.
2. Rajabov Q. Amir Shohmurod yoxud “amiri mas’um” maqolasi.Buxoro mavjlari. 2006-yil/1-son. - B.37.

3. Hayitov Sh.A Vatan mehri.- Buxoro., 2010-yil.-B.4.
4. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 82-85.
5. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
6. Asror o'g'li A. A. et al. BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO'RG'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 84-87.
7. Asror o'g'li A. A., Farruxbek N. FARG'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA) //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 45. – №. 5. – С. 88-91.
8. Botirjon O'g'li N. S., Asror o'g'li A. A. UMARXON XUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGINING HARBIY SALOHİYATI //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 374-377.
9. Zoir o'g'li R. Z., Asror o'g'li A. A. QADIMGI XORAZM: O'ZBEK DAVLATCHILIGINING ILK BOSQICHIDA //JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 378-382.
10. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – C. 39-46.
11. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – Т. 4. – №. 1. – C. 842-845.
12. Ahmadov A. AFG 'ON MA'RIFATPARVARI MAHMUD TARZIY VA AFG 'ON MATBUOTI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – C. 783-786.
13. Ahmadov A. XIX ASR OXIRI–XX ASR BOSHLARIDA AFG'ONISTON MAVZUSINI YORITISHDA SKARABEY TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – C. 894-899.
14. Ahmadov A. SHARQSHUNOS OLIM DN LOGOFET TALQINIDA BUXORO AMIRLIGIDA MAORIF VA DINIY SIYOSAT MASALALARI //" ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал. – 2024. – Т. 16. – №. 8.

15. Шарипова Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЦИЗМОВ В РАЗНЫХ ЖАНРАХ СМИ
//Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. –
С. 57-59.